
Is gazidan saqlanish bo'yicha targ'ibot tadbirlari davom etmoqda

Avval xabar berganimizdek, shahrimizdagi sektor rahbarlari tomonidan mahalla xodimlariga o'z hududlarida yong'inga qarshi kurashish va is gazidan saqlanish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar berilgan edi.

Ayni kunlarda barcha mahalla fuqarolar yig'inlari, korxonalar va tashkilotlarda targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Jumladan, "Surxtepa" mahalla fuqarolar yig'inida shahar favqulodda vaziyatlar bo'limi hamda mahalla xodimlari tomonidan Surxtepa va Kosmonavt ko'chalarida ana shunday tadbir o'tkazildi.

Targ'ibot tadbiri ishtirokchilari tomonidan hududdagi bo'sh turgan yer maydonlariga "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ham ekildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:43:58